

O‘ZBEKISTONLIK EKANLIGIMDAN FAXRLANAMAN!

Oqmamatova Shaxribonu Zafarjonovna,

O‘zDJTU Ingliz tili 2-fakulteti

2103-guruhi talabasi

Qo‘limda qalam, qarshimda oppoq qog‘oz...

“Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlidir” [4;3]. Ha, tariximizga nazar tashlasak, qancha olimlarimiz-u shoirlarimiz, sarkardalarimiz – ota-bobolarimiz O‘zbekiston deb atalmish uyning poydevorini mustahkam qilganligini yurakdan his qilamiz. Buyuk ajdodlarimiz vatan deb atalmish qo‘rg‘onning baquvvat bo‘lishi uchun, milliy qadriyatlarining qadrlanishi uchun, or-nomusi, sha‘ning toptalmasligi uchun jon-jahdi bilan bilan kurashgan. Mashhur hadisshunoslarimiz Imom al-Buxoriy, At-Termiziy insoniyatni hadis ilmining sir-u sinoatidan boxabar qilgan...

Mudom qalbim der: “So‘z mulkin shohisan, sensan Navoiy, Aljabrni yaratgan daho Xorazmiy, Globusni kashf etgan zukko Beruniy, Osmon sinoatin bilgan Farg‘oniy Buyuklar vatani, mudom mangu qol”, “Iymonin asragan Jaloliddinsan.Yovga tug‘ bermagan, buyuk Kubrosan. Sen momom To‘maris, bobom Temursan. Shiroq jasorati, Bobur baytisan. Tarixi ming doston, yurtim, mangu qol”.

Jadidchi allomalarimiz Cho‘lpon, Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosirlar o‘z erki, o‘z eli, o‘z yurti – o‘zligi uchun jon fido qilishgan, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashishgan. Bas, shunday ekan, ota-bobolarimiz bilan faxrlansak arziydi, ularning ulkan ma‘naviy va moddiy meroslarini qadrlab, e‘zozlab, asrab avaylashimiz lozim. Vatanni qadrlash, ardoqlashni esa yurt tuprog‘ini sog‘inch ila ko‘zga surtgan bobolarimizdan o‘rganaylik. Shoirning ushbu misralaridan xulosa chiqaraylik: “Vatan nadur – anglang ranj-u ozoridan, So‘rang uni Mirzo Bobur

mozoridan... Yot ellarda qolib ketdi turbatlari, “Fig‘onkim” deb o‘tdi qancha Furqatlari” [5;662].

Uyning poydevori mustahkam bo‘lsa, u baquvvat bo‘lganidek, biz – yoshlar, mustahkam, ya’ni sog‘lom, qobil, odil, komil bo‘lsak, yurtimiz tinch bo‘ladi, elimiz halovat topadi, kelajagimiz – ertamiz obod bo‘ladi: Insoniyat qadr topadi, sir-sinoatga to‘la ona tabiat yanada g‘o‘zallashadi. Bugungi avlod ajdodlardan meros bo‘lgan sir-sinoatga boy, tengsiz kuch-qudratga ega yodgorlik-u badiiy durdonalar bilan faxrlanibgina qolmasdan, ularga munosib voris bo‘lish, ularning izdoshi bo‘lishi shartdir.

1991-yil 31-avgust – o‘zbekim tarixi zarvaraqlariga zarhal yozuvlar bilan bitilgan sana. O‘sha lahzalarda yurtimiz musaffo osmonida oppoq kabutar o‘zining qanotlarida istiqlol shamollarini olib keldi va biz mustaqil bo‘ldik, ozod bo‘ldik. Hur fikrli, keng tafakkurli yoshlarga yanada ko‘p imkoniyatlar eshigi ochildi. 2000-yilga “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yilga “Ona va bolalar yili”, 2008-yilga “Yoshlar yili”, 2014-yilga “Sog‘lom bola yili”, 2016-yilga “Sog‘lom ona va bola yili”, 2021-yilga “Yoshlarni qo‘llab quvvatlash yili va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nom berildi. Yillar davomida O‘zbekiston dilbandlari fan-texnika, ilm sirlarini o‘rganib, yurtimiz ravnaqi yo‘lida o‘zlarining iqtidorlarini namoyon qildilar. Mustaqilligimiz asoschisi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono, aqlli va, albatta, baxtli bo‘lishlari shart!” – deya ta’kidlaganlar, “Zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega bo‘lgan, yangicha, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimizning ertangi kuni uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, o‘zini namoyish etishga qodir bo‘lgan navqiron o‘g‘il-qizlarimiz, ko‘zlari yonib turgan bunday yoshlarimizni yana qayerda – qaysi davlat, qaysi yurtda topish mumkin?” [1;2], – deya yuksak ishonch bildirganlar. Bu umidni oqlash, ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lish burchimizdir.

O‘tmish va ertangi kunimizni bog‘lovchi ko‘prik bo‘lmish bugunimiz qanchalik yorug‘ bo‘lsa, kelajagimizdan ham umidimiz yanada katta bo‘ladi. O‘zbek nomini butun dunyoga tanitmoq uchun shuncha imkonlar eshigi ochiq. O‘sib kelayotgan avlod, ya’ni biz – yoshlar, izlanuvchan, intiluvchan, iqtidorli, iste’dodli bo‘lsak, ertamiz yanada porloq bo‘ladi. Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston kelajagi uchun katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. 2017-2021-yillar oralig‘ida O‘zbekistonni yanada rivojlantirish maqsadida “Harakatlar strategiyasi” tuzilgan bo‘lsa, 2022-2026-yillar mobaynida “Inson qadri uchun” g‘oyasi ostida “Taraqqiyot strategiyasi” yaratildi. Joriy yil 2022-yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb bejiz nomlanmadi. Chunki insoniyat qadr topgan vatan mudom ulug‘lanadi, asrab avaylanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz yangi O‘zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik va uni butun xalqimiz bilan birgalikda amalga oshiramiz” [2;1].

Biz – yoshlar, qo‘lida nurli kelajak ekan, karvonimizning yetuk sarboni – prezidentimizning bizga keng yo‘l ochib bergan imkoniyatlari, yurtboshimizning bizga bo‘lgan ishonchlarini oqlash, ularga izdosh bo‘lish bizning burchimizdir. Bir yoqadan bosh chiqarib, cho‘qqilarni zabt etib, sabr-u qanoat ila ezgulik tomon harakat qilish, yurtga sadoqatli farzand bo‘lib yetishish, komillikka erishish barchamizning vazifamizdir. O‘zbekim, senga munosib farzand bo‘lish ham sharafdir, ham qarzimdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, yoshlar ma’naviyatini oshirish uchun bir necha kitobxonlik tanlovlari, chet tillarini o‘rganish bo‘yicha bir qancha loyihalar, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro imtihonlarni kompensatsiya qilish Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yo‘lga qo‘yildi. Bugungacha 808 nafar yoshlarga imtihon xarajatlari kompensatsiya qilib berilgan. Bu yildan boshlab mana shunday imtihonlarning soni 13 taga yetishi rejalashtirilgan. Vatanimiz sport sohasida jahon chempionatining yetakchi o‘rinlarini egallab kelmoqda, jumladan,

boks sportida Bahodir Jalolov, Shahram G‘iyosovlar bir necha oltin medallarni qo‘lga kiritdi. 26-30-dekabr kunlari Varshavada (Polsha) bo‘lgan shaxmatning rapid yo‘nalishi bo‘yicha FIDE jahon chempionatida Nodirbek Abdusattorov jahon chempioni bo‘ldi. Dasturlash jabhasida yurtimiz yoshlari katta muvaffaqiyatlarga erishishmoqda. Ammo guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, yoshlar orasida dunyoqarashi tor, vaqtini bekorga sarflaydigan, nafaqat o‘ziga, balki butun bir jamiyatga zarar keltirayotgan yoshlar ham yo‘q emas. Yaratilgan internet imkoniyatlardan oqilona foydalanmay, o‘zi, oilasi, yaqinlari – butun bir millat nomiga dog‘ tushirayotgan insonlardan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz lozim. Marifat urug‘i ko‘proq ekilsa, barcha yoshlar “Zakovat”ga jalb qilinsa, ular shart-sharoitlarni to‘g‘ri anglashsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qayta-qayta baralla aytsak arziydi! Yurtimiz – buyuklar vatani. Ne-ne daholar bunda kamol topib, o‘z iqtidorini namoyon qilgan, o‘zbek nomini butun dunyoga tanitgan hamda bizga buyuk meros – moddiy va ma’naviy boylik qoldirgan. Rosti, biz mudom ular bilan faxrlanamiz, g‘ururlanamiz. Biz, avlodlar, ajdodlar qoldirgan kuchli qudratga ega ulkan xazinaning sir-asrorini o‘rganishimiz, ulardan ma’naviy madad olishimiz hamda uni kelajakka ham o‘z holicha yetkazishimiz zarur. Ajdodlarning noyob, badiiy durdonalaridan ma’naviy kuch olib, el koriga, vatan xizmatiga shay turishimiz kerak. Yurtimning tarixiga kirib borayotgan har bir lahzada biz – Uchinchi renessans bunyodkorlari, o‘zimizning ezgu ishlarimizni amalga oshirishimiz darkor, qomusiy olimlarimizdan ilm-u ma’rifatni o‘rganib, har jabhada o‘z o‘rnimizga ega bo‘lmog‘imiz shart. Zamon “kapalak umri” [6;1]dek o‘tar ekan, vaqt qadrini bilmoq kerak, undan oqilona foydalanmoq zarur. Shuni bilki, O‘zbekiston yoshlari, olg‘a qadam tashla, har soha-yu yo‘nalishda marralarga intil, cho‘qqini zabt et, “Hech kimdan kam emassan, kam bo‘lmagaysan” [3;3], nurli kelajakka talpin, chunki sen o‘ziga bek o‘zbek farzandisan.

Yuragimda ungan gulim – qaddi-qadri baland yurtim, mudom mangu qol!

Adabiyotlar:

1. Karimov I. <https://Hikmatlar.uz>
2. Mirziyoyev Sh. <https://kun.uz>
3. Mirzo Iqbol. Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?! . –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2014. – B.3.
4. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. –Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. – B.3.(www.ziyouz.com.)
5. Saidov S.Vatan nadur // Adabiyot (majmua)). –Тошкент: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 662.
6. G‘afur G‘ulom. Vaqt. <https://tafakkur.net>